



UDK361.1(075)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14651300>

TALABALARDA IJTIMOY DAXLDORLIK FAZILATINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

СОДЕРЖАНИЕ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У СТУДЕНТОВ

THE CONTENT AND DIDACTIC POSSIBILITIES OF DEVELOPING SOCIAL RESPONSIBILITY IN STUDENTS

Abdullayev Sobirjon Sohib o'g'li

*Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasasi mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: asobirjon056@gmail.com / (+998-91) 678-77-66

ORCID 0009-0001-5381-6041

Annotatsiya.

Ushbu maqolada oliy ta'limda talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatga daxldorlik va mas'uliyatni mustaxkamlash ijtimoiy manfaatlar ustuvorligiga asoslangan pedagogik jarayonni innovatsion asosda tashkil etish, talabalarda ijtimoiy daxldorlikni mustahkamlash orqali ularda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish, millat taqdiri uchun o'z manfaatlarini bir chetga surib qo'ya oladigan avlodni shakllantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Pedagogika, ta'lim, jarayon, talabalar, ijtimoiy daxldorlik, fazilat, rivojlantirish, mazmun*

Аннотация.

В данной статье в высшей школе происходит повышение социальной активности студентов, усиление их вовлеченности и ответственности в обществе, организация педагогического процесса, основанного на приоритете социальных интересов на инновационной основе, развитие активной гражданской позиции у студентов путем укрепления анализируются вопросы их социальной активности и служения своим интересам ради судьбы нации.

Ключевые слова: *Педагогика, образование, процесс, студенты, социальная вовлеченность, качество, разработка, контент.*

Abstract.

In this article, in higher education, increasing the social activity of students, strengthening their involvement and responsibility in society, organizing a pedagogical process based on the priority of social interests on an innovative basis, developing an active citizenship position in students by strengthening their social involvement, and serving their interests for the fate of the nation. the issues of forming a generation that can set aside are analyzed.

Key words: *Pedagogy, education, process, students, social involvement, quality, development, content*

KIRISH

Bugungi kunda samarali pedagogik ta'lim jarayonini tashkil etish va bu orqali ko'zlangan maqsadga yetish, ya'ni, raqobatbardosh kadrlar avdlodini tarbiyalash ustuvor vazifalardan bir sifatida baholanmoqda. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarda mavjud ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish, unga yangicha yondashuvlarni olib kirish, rivojlangan davlatlarning ta'lim berish metodikasini o'rganish, o'zlashtirish va ta'limga erkinlik muhitini olib kirish bilan chambarchas bog'liqlikda amalga oshiriladi. Zero, "o'z vatanini, ona xalqini ravnaq toptirish uchun o'zini ayamadan mehnat qilish: bu – jasorat va mardlik, bu – ona yurtga muhabbat va sadoqat, bu – to'g'ri tarbiya va amaliy namuna demakdir"[1;354-b]. Darhaqiqat, sadoqatli va fidoyi, vatanparvar insonlarda ijtimoiy mas'uliyatni anglash mustahkam shaklangan bo'ladi. Shuningdek, mard va sadoqatli insonlarda ijtimoiy daxldorlik hissi shakllangan bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Professor M.Quronovning fikricha, "insonning o'z ijtimoiy borlig'iga loqaydligi va beparvoligi negizini: bir tomondan, milliy g'urur-iftixor tuyg'usini so'nishi, kelajakka umidsizligi, rahbarlarga ishonchsizligi va atrofdagi salbiy, g'ayriaxloqiy hodisalarga ko'nikishi, ikkinchi tomondan: qo'yilgan maqsadning mohiyatini bilmaslik, mutaassiblik va ma'naviy ojizlik tashkil qiladi. Millatning hayotida asrlar davomida uning ustidan hukmronlik qilib, davron surgan mustamlakachilik siyosatiga loqaydligi va ko'nishini millat fojeasi bo'lgan"[2;241-b]. Shu bois loqaydlik va beparvolikka qarshi pedagogik kurashning samarali yo'li yoshlarda ijtimoiy daxldorlikni rivojlantirish hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida pedagoglarning malakasini oshirish, yangicha dunyoqarashni shakllantirish va bu orqali talabalarda ijtimoiy daxldorlikni rivojlantirish, bilimni va insoniy fazilatlarini o'stirish mumkin bo'ladi. O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan muhim va tezkorlik bilan bartaraf etilishi zarur bo'lgan masalalardan biri yoshlarda ijtimoiy mas'uliyatni anglash va daxldorlikni his etishlariga yo'naltirishdir. Zero, «mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar

qatoridan munosib o'rin egallashi avvalo ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqiyosida raqobatbardosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi»[3;491-b]. Buning uchun avvalo jamiyatning ma'rifatlilik darajasini oshirish va shuningdek, yoshlarda makonga mansublik hissini rivojlantirish talab etiladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarda ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qartish zarur bo'ladi:

- axloqiy fazilatlarni qadrllovchi va hurmat qiluvchi kadrlarni yetishtirib chiqarish orqali jamiyatda daxldorlik fazilatlarini rivojlantirish mumkinligi tamoyiliga asoslanish;
- qonunlarni hurmat qiladigan va qadrlaydigan talabalarni o'qitish orqali qonunlarga daxldorlikni his qiladigan yoshlarni tarbiyalash;
- jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni insonparvarlik asosida qurish hamda ularning huquq va erkinliklarini hurmat qiluvchi pedagogik muhit asosida halol va to'g'rilikni qadrllovchi talabalarni o'qitish;
- loqaydik va beparvolikni inkor qiluvchi, ijtimoiy faollik ko'rsatuvchi talabalarni qo'llab quvvatlash orqali ijtimoiy daxldorlik muhitini shakllantirish;
- buzg'unchilik asosiga qurilgan barcha yot mafkuraviy g'oyalar va qarashlarga nisbatan qarshi tura oluvchi talabalarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish;
- o'z millati tarixi, madaniyati, san'ati, tili va urf-odatlarini dunyo sivilizatsiyasining teng huquqli qismi sifatida ardoqlash, uni o'zgalar qadriyatlariga qarshi qo'ymaslik fazilati yuksak rivojlangan talabalarni tarbiyalash.

Oliy ta'limda talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatga daxldorlik va mas'uliyatni mustahkamlash ijtimoiy manfaatlar ustuvorligiga asoslangan pedagogik jarayonni innovatsion asosda tashkil etish samara beradi. Bu orqali yoshlarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik va fidoyilik sifatlarini shakllantirish mumkin bo'ladi. Talabalarda ijtimoiy daxldorlikni rivojlantirishning muhim asosi sifatida ularda shaxsiy manfaatdorlikni shakllantirish talab etiladi. Talaba bo'lajak kadr sifatida ijtimoiy ma'suliyatni, daxldorlik fazilatini namoyon qilishi orqali ijtimoiy manfaatdorlikni ham ko'rsatib bergan bo'ladi. Bugungi kunda barcha ijtimoiy munosabatlar manfaat asosiga qurilayotganligini anglash va shu asosda yoshlarda ijtimoiy daxldorlikni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Oliy ta'limda talabalar ijtimoiy daxldorlikni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik jarayonni tashkil etish, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ularda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning ishtirokchisi o'z o'rnini topishga ham yordam beradi.

“Hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarmoqda. Insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Jahon miqiyosida shafqatsiz raqobat, turli ziddiyat va qarama-qarshiliklar, savdo urushlari g'oyat keskin tus olmoqda. Mana shunday murakkab sharoitda biz faqat xalqimizning aql-zakovati, bukilmas irodasi va salohiyati, o'z kuch va imkoniyatlarimizga tayanib, ayni vaqtda

dunyo hamjamiyati bilan hamkor bo‘lib, dadil oldinga borishimiz shart”[4;126-b]. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida xalqaro tajribalardan kelib chiqib, “oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazish, oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini” yaratish orqali bo‘lajak kadrlarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatdagi islohotlarning amalga oshiruvchi, mas’uliyatli mutaxassis bo‘lib yetishishlarini ta’minlash mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oliy pedagogik ta’limda talabalarda ijtimoiy daxldorlikni rivojlantirishda ijtimoiy gumanitar fanlarning rolini tadqiq etish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Faqat “ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Biz mamlakatimizda investitsiyalarni faqatgina iqtisodiyot tarmoqlariga emas, balki ilmiy ishlanmalar sohasiga ham keng jalb qilishimiz kerak”[5;29-b]. Shu bois, talabalarda vatan taqdiriga mas’uliyatni, daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish va raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalash masalalari ham dolzarblik kasb etmoqda. Shuning uchun ham, talabalarda ijtimoiy mas’uliyat, daxldorlik va ijtimoiy faollikka oid bilimlarni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlardan samarali foydalanishning metodik asoslari, ta’lim texnologiyalarini tadqiq etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.


O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida kadrlar korpusining raqobotbardoshligini ta’minlash zarurati ham yuzaga kelmoqda. Shuningdek, kadrlarda teran tafakkur va keng dunyoqarashni shakllantirish, ma’rifatli qilish orqali ularni ijtimoiy faolligini oshirish, faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mumkin bo‘ladi. “Chunki insoniyatning ma’naviy qashshoqlashuvi jarayonida ma’naviyatni yemirishga xizmat qiladigan “demokratik qadriyat”larni rivojlantirishga intilgani sari insonning ma’naviy “men”ligi barbod bo‘lmoqda. Agar bu jarayonga bugun e’tiborsizlik bilan qaralsa” ertaga yoshlarda vatanfurushlik, egoistlik sifatlari namoyon bo‘la boshlaydi. Bunday sharoitda bo‘lajak bakalavr va magistrilar uchun berilayotgan, ta’lim mazmuni, o‘quv jarayonining jahon andozalari darajasida tashkil etilishi ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini rivojlantirishga mos kelmog‘i lozim. Shuning uchun ham oliy ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlarini joriy etish bakalavrlar, magistrilar va bo‘lajak mutaxassislarni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakl va usullari, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni talab etadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarda ijtimoiy-gumanitar fanlar hamkorligidan bo‘lajak kadrlarda ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini rivojlantirishga oid bilim va

ko'nikmalarini shakllantirish, dunyoqarashini oshirishda ratsional foydalanish talab etiladi. Shuningdek, "XXI asrning boshida inson qalbi va ongi uchun kurash har qachongidan shiddatli tus olayotganligi, duyoning mafkuraviy manzarasi o'zgarib borayotgani, geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosatning qo'shilib borayotgani, mustaqillikni qo'lga kiritgan mamlakatlarda mafkuraviy tamoyillar ahamiyatining oshib borayotgani, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, pedagogika nazariyasi va amaliyoti oldida ushbu jarayonlarga mos keladigan, yangicha fikrlovchi avlodni tarbiyalash dolzarb vazifaga aylandi"[6;242-243-b]. Shu bois, talabalarda ijtimoiy ma'uliyat va daxldorlik fazilatlarini rivojlantirish, loqaydlik va befarqlikni oldini olishda ijtimoiy-gumanitar fanlardan foydalanishning metodik asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Oliy pedagogik ta'lim tizimidagi pedagogika fanlaridan tashqari ijtimoiy gumanitar fanlar tizimi ham talabalarda faol ijtimoiy dahldorlik fazilatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Biroq, bu fanlarning o'tilishida tizimli ketma-ketlikni ta'minlanishi, maqsadi, vazifalari va murakkabiligiga ko'ra bir birini to'ldiruvchilik tamoyili asosida o'tilishi va bu jarayonda fanlararo hamkorlikni yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar talabalarda yagona vatan hissini tarbiyalashi orqali jamiyatda milliy birlikni va birdamlikni rivojlantirishga hizmat qiladi. Bu orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish va ijtimoiy muhitda ichki hamjihatlikni shakllantirish maqsad qilinadi. Masalan, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi fani talabalarda vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi g'oyalar orqali jamiyatni birlashtirish, ijtimoiy daxldorlikni rivojlantirishni maqsad qiladi.



1-rasm. Talabalarda ijtimoiy daxldorlikni shakllantirishga qaratilgan ideologik fanlarni o'tilishidan ko'zlangan asosiy maqsad va vazifalar.

Oliy ta'limda talabalning ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini rivojlantirish, ularda loqaydlik va beparvolikni, mas'uliyatsizlikni yo'qotish hamda yuksak axloqiy prinsiplarni shakllantirishda fanlararo hamkorlikka asoslangan innovatsion ta'limning samarasini ma'lum ma'noda quyidagilar bilan belgilanadi.

- oliy pedagogik ta'lim jarayonga kompleks yondashish, uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- ijtimoiy-gumanitar fanlar asoslarini o'rganishda konkret yondashuvlarni mohirlik bilan ajrata bilish;

- jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy hayotdagi axloqiy muammolarni amaliy keyslar bilan bog'liq holda tushuntirilishi, yechish usullarini o'rgatilishi va talabalarga qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bilan belgilanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joziki, oliy ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonning asosiy kamchiliklaridan biri adolatli va erkin ta'lim olish va ta'lim berish muhitining mavjud emasligi, ta'lim berish metodikasining juda eskiligi bo'lib qolmoqda. Chunki bugungi zamon kadrlar tayyorlash tizimidan yangicha bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni talab etmoqda. Talabalarda ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini shakllantirish orqali ularni turli tahdidlar, xurajlar va boshqa axboriy tajovuzlarga qarshi mustahkam pozitsiyada tura olishlarini tarbiyalash mumkin bo'ladi. Chunki bugungi axboriy kurash asrida yoshlarni bir makon hisi va ijtimoiy daxldorlik sifatini shakllantirish jamiyatning rivojlanishida ham, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda ham muhim omil bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini shakllantirishda ulardagi loqaydlik va beparvolikni bartaraf etish, milliy mansublik va tug'ilib o'sgan joyni qadrlashga alohida urg'u berib turish, shuningdek, milliy tarixning tasirchanligidan, millat va ajdodlar tarixini to'g'ri va ta'sirli yoritish, ularning targ'ib qilish ishlaridan ham samarali foydalanish mumkin. Bu orqali ularni jamiyatda qochish, begonalashuvi va mas'uliyatsizligini oldini olish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B. 452.

2. Qur'onov M. Bizni birlashtirgan g'oya. – Toshkent.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016. –B. 348.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 508.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B.452.

5. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B.400.

6. Quronov M. Bizni birlashtirgan g'oya. –Toshkent.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016. – B. 348.